


8.	Fan/modul uchun ma'sul: Imamova X. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turk filologiyasi” kafedrası dots., PhD
9.	Taqrizchilar: Shabanov J. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turk filologiyasi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Aminova L. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turk filologiyasi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI
(TURK)

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik: 5A120102 - Lingvistika (sharq tili)

Toshkent-2020



	–Soʻzlarni uslub jihatidan toʻgʻri qoʻllash; –oʻrganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy-soʻzlashuv tili va dialektlardan farqini; – oʻqitilayotgan til lugʻat boyligining oʻsishida turli ilmiy tashkilotlarning oʻrnini bilishi kerak. Bular bilan bir qatorda magistr: –oʻrganilayotgan mamlakatdagi tilning nazariy masalalari boʻyicha maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilish va tizimlashtirish; –oʻrganilayotgan tilni isloh qilish yoʻlida olib borilgan harakatlar, ularning faoliyatiga umumiy baho berish; –globallashuv sharoitida oʻrganilayotgan sharq tilining umumiy holati boʻyicha kechayotgan oʻzgarishlarni tushuna olish malakalariga ega boʻlishi kerak.
4.	VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari: • Maʼruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa boʻlib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar .
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Çağdaş Türk Dili. Süer Eker. Grafiker yayınları. Ankara: 2006. 2. Her Yönüyle Dil. Doğan Aksan. TDK yayınları. Ankara: 2004. Qoʻshimcha adabiyotlar 1. Türkiye Türkçesi Grameri. Zeynep Korkmaz. TDK yayınları. Ankara: 2006 2. Söz Varlığı Yazım Anlatım Açısından Türkçedeki Gelişmeler. Hamza Zülfiyar, TDK yayınları. Ankara: 2005. 3. Rierre Achard. Dilsel Toplum bilim. Cep Üniversitesi. İstanbul: 1994
7.	Fan dasturi Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi iynalishlari boʻyicha Oʻquv- uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil “<u>29</u>” <u>08</u>” dagi <u>4</u> -sonli bayonnomasi bilan maʼqullangan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020 yil “<u>29</u>” <u>08</u>” dagi <u>452</u> - sonly buyrugʻi bilan maʼqullangan fan dasturlarini tayanch oily taʼlim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozolik berilgan.

	Amaliy darslarga tayyorlanish uchun talabalar qo'shimcha ilmiy adabiyotlarni o'qiydilar va bu ham o'z o'rnida mazkur fanni yanada chuqur egallash uchun yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Turk tilining tipologik xarakteristikasi. 2. Turk tilining sintetik formalri (kelishik turlanishi va fe'l tuslanishi asosida). 3. Tilning rivojlanishi va til tizimiga boshqa tillarning ta'siri masalasi. 4. Turk tiliga o'zlashtirish jarayonida G'arbiy Yevropa madaniyatining ta'siri. 5. Turk tili tadqiqotchilari asarlarida yevropeizmlar. 6. Leksik o'zlashmalarning moslashuvi va assimilyatsiyasi. Mustaqil o'lashtiriladigan mavzular bo'yicha magistr tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magistr: "Mutaxassislikning nazariy masalalari (turk)" fanining o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr: –Turli grammatik mavzular bilan bog'liq bilimlar xazinasini oshiradi, savol-javob va analiz qilish jihatlari o'stiradi; –Grammatika bilan bog'liq muammolar haqida munozara qilish va yechim takliflarini bildiradi; –Mutaxassisliklari bo'lgan sohalar bilan bog'liq bilimlarini o'rgatish ko'nikmasiga ega bo'la oladi; –Sohasi bo'yicha qo'lga kiritgan bilim va ko'nikmalarini butunlay boshqa bilim sohasidan o'rgangan bilimlar bilan izohlash xususiyatini egallaydi; –Tilning qo'llanishi va Turk tilining mantiqiy sistemasini o'rganadi, bilimlarini boshqalarga bera oladi; –Asosiy til tadqiqi metodlari haqida bilimga ega bo'ladi; –Tilning ahamiyatini anglaydi va turk tilini eng yaxshi shaklda qo'llay oladi.; –jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillarni; –Tanqidiy fikrlarni asosiy planda tutib analiz qilish, muammolarga yechim topib takliflar bildirish; –Til tushunchasini bir ilm sohasi sifatida grammatikani va turk tilining sohalarini o'rganadi va o'rgata oladi; –Imlo qoidalariga mos matnlar yaratish; –Tinish belgilarni to'g'ri va o'rnida ishlatish;

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
5ALNM125	2020-2021	1	5	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/rus		4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikning nazariy masalalari (Turk)	60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad. Ma'lumki bir semest davomida magistr talabalariga Turk tilining nazariy masalari va uning til madaniyatiga alohida e'tibor berib o'qitilmoqda. Sababi tilning asosiy struktural grammatikasiga oid bilimlarga ega bo'lgan talabalardan uni amalda go'lash, hususan, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olish asosiy talablardan hisoblanadi. Shu bois Turk tilining nazariy masalalariga alohida to'xtalish, talabalarining mavjud bilimlarini umumlashtirish va ularni yanada boyitish dolzarblik kasb etadi. Fanning vazifasi. Mazkur dastur talabalarda Turk tili nazariy masalalari haqida yetarli tasavvurlarga ega bo'lish, magistrlar uchun magistrlik dissertasiyalarni yozishda ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu dasturning asosiy maqsadi Sharqshunoslik universiteti Turk filologiyasi kafedrasida magistrlariga Turk tilining nazariy masalalari bilan bog'liq muammolar bilan tanishtirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Fan (Turk tilining nazariy masalalari)ning mazmuni haqida tushuncha va tuzilishi. Turk tilining nazariy masalalari tushunchasi. Tushunchaning tor va keng ma'nolari. Turk tilini o'qitishda Turk tili nazariy masalalarining ahamiyti. Fanning tuzilishi va bo'limlari. 2-mavzu: Turk tili: turkologiya va tilshunoslik fani. Turk tili, turkologiya va tilshunoslik tushunchalari. Ushbu tushunchalarning tilshunoslik va boshqa filologiya fanlari bilan uzviy bog'liqligi. Diaxron va sinxron yondashuvlar. Turkologiya va shaqshunoslik.			

3-mavzu: Turk tilining og'zaki va yozma shakllari

Turk tilining turlari haqida. Og'zaki va yozma til. Ularning o'zaro ta'siri va muammolari. Og'zaki til: lahja va shevalar. Yozma til: adabiy til va uning sohalarida qo'llanishi. Til uslublari: badiiy, publisistik, ilmiy va rasmiy uslublari haqida. Turk tilshunoslarning fikr va mulohazalari.

4-mavzu: Adabiy til sifatida turk tili

Adabiy til atamasi. Turk tilining tarixiy davrlari va bosqichlari. Turk adabiy tilning yuzaga kelishidagi omillar. Turk adabiy tilining asosi.

5-mavzu: Turk tilining grammatik sathlari

Turk tilining grammatik bo'linishdagi o'ziga xosliklar. Morfologiya va sintaksis. Turk tilida o'zak, negiz va qo'shimchaning turlari. So'z turkumlaridagi bo'linish.

6-mavzu: Fonologiya. Turk tili fonologik tizimining umumiy tavsifi

Turk tilida tovush va harf. Unlilar va undoshlar tizimi. Unlilarga ko'ra til oldi va til orqa; keng va tor; lablangan va lablanmagan unlilat. Undoshlarga ko'ra sirg'aluvchi va portlavchu; qattiq va yumshoq undoshlar. Turk tilidagi tovushlarning o'ziga xos xususiyatlari.

7-mavzu: Singormonizm hodisasi. Tovush tushishi va tovush orttirilishi

Unlilarda singormanizm. Katta asosiy singormanizm va kichik singormanizm hodisasining prinsiplari. Undoshlarda singormanizm. Undoshlarda assimliatsiya hodisasi: 'Sessiz yumuşamasi' va 'Sessiz benzeşmesi'. Tovush tushishi va tovush orttirilishi hodisalarining o'ziga xosliklari.

8-mavzu: Morfonologiya. So'z shakllarining tuzilishi bo'yicha umumiy ma'lumot

Morfonologiya tushunchasi haqida. So'zlardagi morfonologik o'zgarishlar. So'z moddiy tarkibining o'zgrishi: soddalashuv, qayta tuzish va murakkablashuv.

9-mavzu: Turk tilida o'zak va uning turlari

Tilda o'zak tushunchasi haqida. Isim o'zak, fe'l ozak va ikkili o'zak turlari haqida. Turk tilida o'zaklarning o'ziga xos xususiyatlari. Bu haqda tilshunoslar fikrlari.

10-mavzu: Turk tilining boshqa tillar bilan o'zaro bog'liqligi va ta'siri

Turk tilining lugat boyligi. Lugat sostavining aktiv, passiv va neologizmlari. Tilning boyish manbalari. Turk tiliga boshqa tillardan o'zlashgan va chet tillaridan turk tiliga o'zlashgan o'zlashmalar. Turk tilida so'z yasash usullari.

11-mavzu: Turk tili morfologiyasi va uning nazariy muammolari

Nutqning eng kichik ma'no anglatuvchi birligi morf va morfema. Morfemaning turlari: o'zak morfema va affiksial morfema. Grammatik vositalar va kategoriyalar. So'z turkumlari.

12-mavzu: Turk tili sintaksisi

Sintaksis tushunchasi haqida: kichik sintaksis va katta sintaksis. Tuzilishiga ko'ra gap turlari. Ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Turk tilida gap bo'laklari. Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. So'z birikmalari: sintaktik munosabat turlari va vositalari. Gapning aktual bo'linishi.

13-mavzu: Turk tilida segment (supersegment) birliklar

Turk tilida segment tushunchasi. Urg'u va uning turlari: so'z urg'usi, birikma urg'usi, gap urg'ui. Turg'un urg'u, erkin urg'u va fraza urg'usi. Ohang, pauza, ulash hodisalari.

14-mavzu: Turk tilida imlo qoidalari

Yozuv turlari va qoidalari: logografik va piktografik. Yozuvdagi ramzlar va belgilar, ularning turlari. Turk tilida tinish belgilar va ularning turlari. Tinish belgilarining yozuvdagi ahamiyati.

15-mavzu: Mavzularni umumlashtirish va yakunlash

Turk tilining nazariy masalalari fani bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, savol-javoblar asosida mustahkamlash. Nazariy bilimlar bilan bog'liq fikr va mulohazalarni tinglash.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fan (Turk tilining nazariy masalalari)ning mazmuni haqida tushuncha va tuzilishi. Maqsad va vazifalari.
2. Turk tili: turkologiya va tilshunoslik fani.
3. Adabiy til sifatida turk tili. Adabiy tilning yuzaga kelishidagi omillar. Turk adabiy tilining asosi.
4. Turk tilining og'zaki va yozma shakllari. Ularning o'zaro ta'siri va muammolari.
5. Turk tilining grammatik sathlari. Bo'linishdagi o'ziga xosliklar.
6. Fonologiya. Turk tili fonologik tizimining umumiy tavsifi. Unlilar va undoshlar tizimi. Turk tilidagi tovushlarning o'ziga xos xususiyatlari.
7. Singormonizm hodisasi. Tovush tushishi va tovush orttirilishi.
8. Morfonologiya. So'z shakllarining tuzilishi bo'yicha umumiy ma'lumot.
9. Turk tilida o'zak va uning turlari. Bu haqda tilshunoslar fikrlari.
10. Turk tilining boshqa tillar bilan o'zaro bog'liqligi va ta'siri. Turk tilida so'z yasash usullari.
11. Turk tili morfologiyasi va uning nazariy muammolari.
12. Turk tili sintaksisi.
13. Turk tilida segment (supersegment) birliklar: urg'u va uning turlari, ohang, pauza, ulash hodisalari.
14. Turk tilida imlo qoidalari.
15. Mavzularni umumlashtirish va yakunlash.

Nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni talabalar amaliy mashg'ulotlarda ko'nikma va malakalarini oshirib, mustahkamlab boradilar.